

MAKTABGACHA TA' LIMDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA UNING AHAMIYATI

Ro`ziyeva Shoxsanam Nor qizi

Navoiy viloyati Karmana tumani 24-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya

Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalalari xususida.

Kalit so`zlar: maktabgacha ta'lim tizimi, yosh avlod, aqliy intellektual, ko'nikma, ma'naviy salohiyat, maktabga tayyorlash, takomillashtirish.

Yosh avlodning shaxs va sub'ekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasini yuksaltirish maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanadi. Ushbu jarayonning samarali tashkil etilishi va boshqarilishi ta'limtizimining uzuksizligini ta'minlash sharti bo'lib xizmat qiladi, chunki yosh murg'ak qalblar bilan olib boriladigan pedagogik jarayon ularning kelajakda kim bo'lib yetishishlari, qanday fuqarolik pozitsiyasini egallashlari bilan bog'liq holda qaraladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ulkan islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, m amlakatimiz kelajagi va ravnaqida muhim o'rinn tutadigan maktabgacha ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, bu tizim jamiyatning birlamchi va eng muhim bo'g'inidir. Bolalarda maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha ham tashkiliy, ham mazmun jihatidan ko'p ishlar qilinmoqda.

Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qarat ilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik jarayonlarni takomillashtirish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy -axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi.

Maktabgacha ta'lif jarayonida bolalarni maktabga tayyorlashda didaktik jarayonga zamonaviy metodlarni qo'llash va pedagogik tizimni oqilona tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 24-may kuni hududlarda maktabgacha ta'lif muassasalari qamrovini kengaytirish masalalari muhokamasi yuzasidan o'tkazgan yig'ilishlarida 53 ta tumanda 34 ming o'rinni 2 mingta oilaviy bog'cha tashkil etish choralarini belgilandi. Bunday bog'chalarga qo'shimcha ishchi yollashga ruxsat berib, qabul qilinadigan bolalar sonini ikki barobar oshirish taklifi ma'qullandi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, maktabgacha ta'lif pedagogikasi maktabgacha ta'lif va boshlang'ich ta'lif uzviyligini davom ettiruvchi metakognitiv ta'lifni zamonaviy maktabgacha ta'lif muassasalarida tashkil qilishni inobatga olishi zarur. Maktabgacha ta'limda variativlik asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotning ijtimoiy -iqtisodiy sohalariga ko'nikuvchanligini shakllantirish orqali fikr -mulohazali shaxslarni yetishtirish holatini vujudga keltiradi. Ikkinci tomondan, mak tabgacha ta'limda metakognitiv bilimlarni shakllantirishga yo'naltirilgan moslashuvchan ta'lif berish bolaning kattalar bilan muloqoti davomida insonparvarlikka asoslangan sub'ektlik darajasining belgilanishi bilan o'chanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Maktabgacha ta'lif va tarbiya to'g'risidagi qonun" 2019., 16 dekabr, O'RQ -595-son.
 2. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 20.05.2021 yildagi «Maktabgacha ta'lif va tarbiya to'g'risida»gi Qonun (16.12.2019 yildagi O'RQ -595-son) qabul qilinishi munosabati bilan hukumatning ayrim qarorlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi 320-son qarori.
- 3.F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova "Maktabgacha pedagogika".T.: -2019